



№12
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 394 sahifa,
2-dekabr, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalar tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Woosyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Yangi O'zbekiston sharoitida ayollar ijtimoiy faolligini oshirishda psixologik motivatsiya va o'z-o'zini rivojlantirish strategiyalari	26
Xuseynova Abira Amanovna	
Pragmalinguodidactic Principles in Teaching English for Philologist Students and their Application in Intercultural Communication.....	31
Arzieva Bibi-Sanem Aynazarovna	
Metakognitiv ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan biologiya o'quv materiallarini loyihalash, joriy etish va samaradorligini baholash.....	35
Abdurasulova Gulrux Habibullayevna	
Oligofreniya holatida neyropsixologik tashxislar qo'llanilishining umumiy masalalari	40
Akramov Dostonbek Ikromjon o'g'li, Xojaliyeva Sarvinov Elyorjon qizi	
Oliy ta'lim muassasalari talabalarida kreativ kompetensiyani rivojlantirish pedagogik muammo sifatida ...	44
Asatova Dildora Aslamovna	
Ingliz tili o'qish ko'nikmalarini takomillashtirishda autentik manbalarning roli.....	49
Bekmuratova Nargiza Arislanbayevna	
Insultdan keyingi nutqni tiklashda logopedik rehabilitatsiya va nevrologik muolajalar integratsiyasi	52
Boltaboyeva Xurshida Sharofiddinovna	
The Concept of Symbols in Linguoculturology	56
Hamraqulova Gulandom Sodiq qizi	
Buyuk ipak yo'li xalqlari o'rtasidagi pedagogik va madaniy aloqalarning vujudga kelishi.....	59
Mirxalilova Nargiza Akbarovna	
Bo'lajak tarbiyachilarni bolalarni nutqini o'stirishga bo'lgan kasbiy-pedagogik tayyorgarligini o'stirish	63
Mitaliboyeva Dildora	
Koxlear implantli bolalarning eshituv–nutqiy faolligini oshirishda differensial yondashuv asosida korreksion-pedagogik ish	66
Nartayeva Shahnova Yulchibayevna	
Fasilitatsion yondashuv asosida kichik maktabgacha yoshdagi bolalarda adaptiv ko'nikmalarni rivojlantirishning psixologik-pedagogik mexanizmlari.....	71
Normatova Nilufar Komilovna	
Boshlang'ich sinflarda disgrafiyasi bo'lgan o'quvchilarda yozish kompetensiyalarini shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari (XIX–XXI asrlarda).....	76
Qaxxorova Saidaxon, Mamarajabova Zulfiya	
Raqamli texnologiyalar va onlayn platformalar orqali olimpiya ta'limini rivojlantirish: yoshlar orasida axloqiy va jismoniy madaniyatni oshirish	80
Qodirov Jurabek Mamatsimonovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida sun'iy intellekt bilim va savodxonligini rivojlantiradigan innovatsion jismoniy-interaktiv o'yinlar: pedagogik model	83
Quvonova Nodirabegim Shavkat qizi	
“Sab'ai sayyor” asarida qo'llangan onomastik birliklar haqida mulohazalar	87
Gadayev Oybek Yaxshiboyevich, Ravshanova Sharbatoy Rahmatilla qizi	
Ijtimoiy tarmoq shifokorlarining masofaviy konsultatsiyalari shaxs psixikasi va salomatligiga ta'siri	91
Askarova Nargiza Abdivaliyevna, Ravshanova Zarnigor Daminovna	
Talabalar ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalari va interfaol metodlardan foydalanish.....	95
Satvoldiyev Faxriddin Akbarali o'g'li	
Innovatsion ta'lim texnologiyalari orqali pedagoglarning kreativligini rivojlantirish	99
Saydullayeva Gulasal Umidjon qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalar motorikasini rivojlantirishning standart modeli	102
Sirojiddinova Xamidaxon Xasanboy qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarning shaxslararo munosabat kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	106
Turg'unova Gulnoza Muhammadjonovna, Xodjiyeva Mahliyo	



Shaxsdagi mehnat motivatsiyasi samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi korrelyatsion bog'liqliklar tahlili	109
Xusanov Samariddin Maxmadaminovich	
Auditoriyadan tashqari musiqiy mashg'ulotlarni art-terapiya yordamida tashkil etish asoslari	112
Yarashev Jo'rabek To'rayevich	
Формирование творческого мышления школьников на уроках музыки	117
Габдулманова Ильнура Минисламовна	
Теоретико-методологические основы коллаборативного обучения, кооперативных подходов и интерактивных педагогических методов	119
Жураева Мафтуна Бахтиёр кизи	
Педагогическое колесо как инструмент формирования цифровой компетентности будущих педагогов дошкольного образования	124
Уразова М. Б., Усманова У. Б.	
Особенности гражданского воспитания обучающихся в системе "школа–махалля" в Узбекистане ..	130
Хайдаров Шавкат Шамсиддин угли	
Педагогические условия формирования языковой грамотности у учащихся с тяжелыми нарушениями речи	135
Юсупова Зулайхо Бахром кизи	
Valeologik tarbiyada o'yin texnologiyalarining ahamiyati	139
Berkinova Charos Islomovna	
O'quvchilarda faol fuqarolik kompetensiyasi tushunchasi, mazmuni va shakllanishi	142
Buvorayeva Gulruh Shoikrom qizi	
Boshlang'ich ta'limda STEAM yondashuvi asosida o'qitishning didaktik imkoniyatlari	145
Cho'tboyeva Munisxon Eshpo'lat qizi	
Tabiatga muhabbat: maktabgacha ta'limda milliy qadriyatlar va o'yinlar orqali ekologik tarbiya	150
Ergasheva Umriniso Komilovna	
Zamonaviy ta'lim – talabalar ijtimoiy intellektini shakllantirish omilidir	153
Ermatova Gulnoz Pirimovna	
O'zbekistonning eng yangi tarixi fanini o'qitishda pedagogik texnologiyaning o'rni	156
Gazibekova Feruza Hakimovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining raqamli texnologiyalar muhitida tanqidiy va mustaqil fikrlashini rivojlantirish metodikasi	159
Haydarova Feruza Haydar qizi	
Talabalarda ma'naviy-axloqiy fazilatlar va sifatlarni shakllantirish mexanizmi	162
Jumanazarova Dilnoza Umurzaqovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning kasbga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirishda interfaol metodlarni qo'llash texnologiyasi	165
Jumayeva Malika Aliyevna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarda kasbiy-nutq madaniyatini rivojlantirish	168
Lutfetdinova Ra'no Xusnetdinovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik rivojlanishga zamonaviy yondashuvlar va jahon tajribalari ..	172
Masharipova Barno Erkin qizi, Adilbayeva Dilnoza Adilbay qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida til o'yinlari texnologiyalarining nazariy asoslari	175
Masharipova Dilfuza Muxammadjon qizi	
Maktabgacha ta'lim tarbiyachisi pedagogik faoliyatining o'ziga xosligi	178
Muhammadiyeva Feruza Turakulovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishda aksiologik yondashuvdan foydalanish metodikasi	181
Muhiddinova Munira Xayrullayevna	
Boshlang'ich ta'lim jarayonida matematika fanini o'qitishda raqamli transformatsiya vositalaridan foydalanishning metodik paradigmasi	184
Narzullayeva Sevara Omonovna	
O'qituvchining muloqot madaniyatini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	187
Nizamova Nodira Paxritdinovna	
Integrativ yondashuv asosida o'quvchilarning nutqiy kompetentligini rivojlantirishning mazmuniy izohlanishi	191
Oysha Qurbonova, Nodira Abduraimova	
Boshlang'ich ta'limda Finlandiya tajribasi	195
Nodira Sherboyeva	

Kutubxonachi kutubxona-axborot xizmati jarayonining yetakchi ishtirokchisi sifatida	198
O'ktam Nosirov	
Pedagogik ta'lim transformatsiyasida talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyasi.....	204
Rustamova Shoxista Omonjonovna	
Globallashuv sharoitida axborot-psixologik xavfsizlikni shakllantirish masalalari.....	208
Raxmatjonov Shoxjahon Dilshodbek o'g'li	
Talabalarga ingliz tilini o'qitishning zamonaviy innovatsion texnologiyalari	212
Sa'dullayeva Rushana	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish	215
Saidova Dilbar Erkinovna	
Pedagog xodimlarda tolerantlik namoyon bo'lishining determinantlari.....	218
Sattorova Maxliyo Dilmurod qizi	
Kreativ metodlar orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ tafakkur va fikrlashni rivojlantirish	223
Sultonboyeva Baxriniso Ilhomjon qizi	
Artpedagogika texnologiyalaridan foydalanib maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutqni rivojlantirish metodikasi	226
Xolmatova Fotima Baxtiyor qizi	
Boshlang'ich ta'limda yashil kompetensiyalarni shakllantirish yo'nalishlari	229
Yaqubova Shoir Tog'aymuratovna	
Emotsional intellektni rivojlantirishning nazariy asoslari.....	233
Yarmatov Raxmboy Baxramovich	
Boshlang'ich ta'limda o'quv veb-saytlari orqali til kompetentligini rivojlantirish	239
Zokirova Sohila Muxtoraliyevna, Muxammadjonova Diyorabonu Muzaffarjon qizi	
Языковые изменения в русском языке XXI века: исследование новых слов, сленга, интернет-коммуникации, влияния англицизмов и глобализации на современный русский язык	242
Марупова Дилфуза Давроновна	
Oliy ta'limda talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatining maqsad va vazifalari	247
F. R. Xosilova	
Boshlang'ich ta'lim texnologiya darslarida o'quvchilarni tabiiy materiallar bilan ishlashga o'rgatish	251
Kambarov Nodirjon Sattarovich, Nasirjanova Feruzaxon Alixon qizi	
Boshlang'ich ta'limda STEAM yondashuvining qo'llanilishi va uning samaradorligi.....	256
Abdulazizova Yulduz Abdujabbor qizi	
Tabiiy fanlarni o'qitishda STEAM yondashuvi asosida kreativlikni rivojlantirish metodikasi	259
Abdullayeva Dilrabo Fayzulla qizi	
Umumta'lim maktablarida o'quvchilarda shaxs ma'naviy qiyofasini shakllantirishning zamonaviy pedagogik texnologiyalari.....	262
Aliyeva Zuxra Tursunboyevna	
Yosh avlodni madaniy-tarixiy yondashuv asosida tarbiyalashda madaniy-ma'rifiy muassasalarning o'rni..	265
Aripov Shokirjon Olimovich	
Ta'limda yangi texnologiya: 4K modeli va uni amalga oshirish yo'llari.....	268
Avliyoqulova Nasiba Choriyevna	
Badiiy-tarixiy materiallarni ta'lim jarayoniga integratsiyalashning metodologik asoslari	272
Baratov Baxtiyorjon Qodirovich	
Bolaning maktabgacha ta'lim tashkilotiga moslashishida o'yinning roli.....	275
Barno Masharipova Erkin qizi, Zuhrobova Mahliyo Abdulatif qizi	
Boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida integrativ yondoshuvdan foydalanish texnologiyasi	278
Ernazarova Laylo Abdusaitovna, Saidahmadova Gulrux Farrux qizi	
Bo'lajak tarbiyachilarda metarefleksiv fikrlashni rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari	284
Ismailova Nilufar Isroildjanovna	
Semantic and Cross-Cultural Features of Food-Based Idioms in Karakalpak and English Languages.....	289
Jiemuratova Gulistan Koshkinbaevna	
Filolog talabalarida mustaqil fikrlash va qaror qabul qilishni rivojlantirishda metakognitiv yondashuvlarning didaktik mexanizmlari.....	292
Jo'rayeva Dilnoza Ro'zimat qizi	
Rivojlantiruvchi sohalar kompetensiyalariga integratsion yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash texnologiyasini rivojlantirish	296
Jo'rayeva Zilola Sayfiddin qizi	



Psixologlar kasbiy komponentlarini rivojlantirishda matematik usullardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari.....	302
Kuziyeva Dilnura Dilmurotovna	
O'zbekiston metodik maktabida sotsiolingvistik kompetensiyani shakllantirish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar tahlili	306
Madaminova Gulzira Gulamkadirovna	
Maxsus pedagogika fanlarini o'qitishning nazariy-metodik asoslari	313
Maqsudova Nodira Alijonovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda metakognitiv ko'nikmalarni rivojlantirishda ertakterapiya texnologiyalaridan foydalanish metodikasi	317
Muxiddinova Difuza Sherdor qizi	
Nutq madaniyatini shakllantirishda o'qituvchi nutqining roli.....	320
N. Q. Olimova	
Boshlang'ich ta'lim jarayonida matematika fanini o'qitishda raqamli transformatsiya vositalaridan foydalanishning metodik paradigmasi	323
Narzullayeva Sevara Omonovna	
O'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish metodikasi	326
Normirzayeva Maftunaxon Ilyosjon qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tadqiqot faoliyatini rivojlantirishda intensiv ta'lim texnologiyalarining metodik asoslari.....	329
Olloqulova Farzona Umedillayevna	
Maktabgacha ta'lim yoshidagi giperaktiv bolalar bilan ishlashda pedagogik kompetentligini oshirish metodikasi	332
Raimqulova Sojida Abdusaid qizi	
Talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirishning nazariy asoslari	335
Rustamova Shoxista Omonjonovna	
Inklyuziv ta'limni tashkil etishning xorijiy pedagogik amaliyotdagi modellari	339
Sultonova Zarina Uchqun qizi	
Xalq pedagogikasida ertaklarning tarbiyaviy va ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati: ma'naviy begonalashuvga qarshi tarbiyaviy omil sifatida	343
To'xtasinova Farida Davlatali qizi	
B1 darajadagi talabalar uchun xorijiy tilni o'qitishda audiovizual texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirishning metodik asoslari	347
Toshpulatova Shaxsanam Xolmurodovna	
Kontekstli ta'lim va uning boshlang'ich ta'lim matematikasidagi ahamiyati haqida	350
Umarova Nigora Alisherovna	
Oiladagi psixologik muhitning o'spirinlarda to'liqsizlik kompleksi shakllanishiga ta'siri	353
Xalmuratova Dilorom Abdikarimovna	
Ta'limda faktcheking: misinformatsiya va dizinformatsiyaga qarshi kurashishning pedagogik asoslari	356
Xidirova Maftuna Ilhom qizi	
Maktab o'quvchilarini falsafiy va dunyoqarashga tayyorlash omillari	362
Xo'shboqova Farida Komiljon qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutq faoliyatini rivojlantirishning lingokognitiv asoslari	370
Xusanova Gulruxsor To'liqin qizi, Aliyeva Muhlis Baxodir qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyasini oshirish	374
Zokirova Sohibaxon Muxtaraliyevna, Erkinova Nazokatxon Anvarjon qizi	
Эффективность занятий кроссфитом в повышении уровня общей физической подготовленности слушателей института повышения квалификации МВД Республики Узбекистан	377
Албеков Шокир Адилбекович	
Роль торговых и кочевых маршрутов в формировании лингвокультурных заимствований между Хорезмом и Южной Сибирью.....	381
Сатымова Светлана Сатымовна	
Использование искусственного интеллекта в обучении русскому языку как иностранному: проблемы и решения.....	385
Ташева Дилором Салимовна	
Проблемы использования коммуникативного метода в преподавании русского языка студентам	389
Тоджибоева Наргиза Джумабоевна	

RIVOJLANTIRUVCHI SOHALAR KOMPETENSIYALARIGA INTEGRATSION YONDASHUV ASOSIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MA'NAVIY- AXLOQIY TARBIYALASH TEXNOLOGIYASINI RIVOJLANTIRISH

Jo'rayeva Zilola Sayfiddin qizi

Namangan davlat pedagogika instituti,
Maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada rivojlantiruvchi sohalar kompetensiyalariga integratsion yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash texnologiyalari hamda ularning mazmun-mohiyati tahlil etiladi. Xususan, tadqiqot va o'yin texnologiyalari orqali qo'llanishi mumkin bo'lgan usullar, ularning pedagogik ahamiyati va samaradorlik jihatlari ilmiy asosda yoritiladi.

Kalit so'zlar: rivojlantiruvchi sohalar, kompetensiya, integratsion yondashuv, ma'naviy-axloqiy tarbiyalash, tadqiqot texnologiyasi, o'yin texnologiyasi.

Abstract: This article analyzes the technologies of spiritual and moral education of preschool children through an integrated approach to the competencies of developmental areas, explaining their essence and pedagogical significance. In particular, it examines the methods that can be applied through research and game technologies, highlighting their pedagogical value and effectiveness.

Key words: developmental areas, competence, integrated approach, spiritual and moral education, research technology, game technology.

Аннотация: В статье анализируются технологии духовно-нравственного воспитания детей дошкольного возраста на основе интегративного подхода к компетенциям развивающих направлений и раскрывается их сущность. В частности, рассматриваются методы, применяемые с использованием исследовательских и игровых технологий, а также их педагогическая ценность и эффективность.

Ключевые слова: развивающие направления, компетентность, интегративный подход, духовно-нравственное воспитание, исследовательские технологии, игровые технологии.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning 8-moddasida: "Maktabgacha ta'lim va tarbiya bolalarni o'qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etnik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek, bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan ta'lim turidir. Maktabgacha ta'lim va tarbiya olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni boshlang'ich ta'limga bir yillik majburiy tayyorlashni ham nazarda tutadi" – deb belgilangan^[1].

Bugungi kunda jamiyatda kechayotgan ijtimoiy, iqtisodiy va axloqiy o'zgarishlar raqobatbardosh, ma'naviy yetuk, yuksak qadriyatlarga ega shaxsni tarbiyalash vazifasini dolzarb masalalardan biriga aylantirmoqda. Yangi O'zbekiston sharoitida yosh avlodni barkamol qilib voyaga yetkazish, ularda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, mehr-oqibat, hamjihatlik, vatanparvarlik kabi ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish ta'lim-tarbiya tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.



Mazkur jarayon, avvalo, inson kamolotiga mustahkam zamin yaratiladigan maktabgacha ta'lim bosqichida izchil tashkil etilishi zarur. Chunki bolaning shaxsiy ongining shakllanishi, his-tuyg'ularining rivojlanishi, axloqiy qarashlari va jamiyatga bo'lgan munosabatlari aynan maktabgacha yosh davrida shakllanadi. Shu bois maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ma'naviy-axloqiy tarbiyani samarali yo'lga qo'yish, bu jarayonda bolaning har tomonlama rivojlanishini inobatga olgan holda rivojlantiruvchi sohalar kompetensiyalarini integratsion yondashuv asosida uyg'unlashtirish muhim ahamiyatga ega.

Ayniqsa, jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ijtimoiy-hissiy rivojlanish, nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari, bilish jarayonining rivojlanishi hamda ijodiy rivojlanish sohalarini o'zaro uyg'unlikda tashkil etish orqali bolalarda ma'naviy-axloqiy sifatlarining kompleks rivojiga erishish mumkin. Shu nuqtai nazardan, ushbu tadqiqot ishida bolalarning barcha rivojlanish sohalariga tayangan holda ma'naviy-axloqiy tarbiyani amalga oshirishning zamonaviy pedagogik texnologiyalari ilmiy jihatdan tahlil qilindi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Respublikamizda fanlararo aloqadorlik va integratsion o'qitish jarayonlarini tashkil etish masalalari bo'yicha R. Jo'rayev, U. Musayev, A. Zunnunov, S. A. Karimbekov, R. Mavlonova, F. Qodirova, Z. Azimova, B. Abdullaeva, Sh. Yusupova, Q. Inaqov, N. Abdullayeva, X. Yo'lbarsova, N. Ahmedova, M. Irisbayeva, O. Jamoliddinova kabi olimlar tomonidan keng qamrovli ilmiy izlanishlar olib borilgan. Ushbu tadqiqotlarda fanlararo aloqadorlikning turli yo'nalishlari va tamoyillari, ularning o'quv jarayonida muayyan fanlarni o'zlashtirishda qo'llanishi, shuningdek, fanlararo integratsiya asosida ta'lim mazmuniga qo'yiladigan talablar ilmiy-amaliy jihatdan chuqur o'rganilgan.

E. M. Hamrayeva, X. A. Mamajonov, S. G'. Norqobilova, Y. S. Sidiqova, M. A. Zokirov, M. G'. Otaxanov singari tadqiqotchilar rivojlanish sohalar kompetensiyalarining maktabgacha yoshdagi bolalar ta'limi va tarbiyasida tutgan o'rnini ilmiy asosda yoritganlar. Yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning pedagogik va psixologik jihatlari, bolalarda ma'naviyat, axloq, milliy g'urur va madaniyatni shakllantirish, oilada va ta'lim muassasalarida shaxs tarbiyasining o'ziga xos xususiyatlari M. Qur'onov, M. Inomova, O. Musurmonova, Z. Ismailova, N. Abdusamatova, Sh. Xujamberdiyeva, U. Mahkamov, Sh. Mardonov, N. Ortiqov, B. Raximov, D. Ro'ziyeva, D. Sharipova, B. G'aniyev, D. A. Abdurahimova, N. Egamberdiyeva, Z. Saliyeva, A. Nurumbekova, O. X. Qosimova, A. E. Xo'jaqulov, Z. F. Azizova, A. A. Rahimov, G. A. Mardonova va boshqa olimlarning ilmiy izlanishlarida atroflicha yoritilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot doirasida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida "Syujetli-rolli o'yinlar va drammashtirish", "Til va nutq", "San'at", "Ilm-fan va tabiat" hamda "Qurish, yasash, konstruksiyalash va matematika" kabi rivojlanish markazlarida bolalar faoliyatini tashkil etish jarayoni o'rganildi va ushbu jarayonda rivojlantiruvchi sohalar kompetensiyalariga integratsion yondashuvni qo'llash imkoniyatlari yuqori ekanligi aniqlandi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda rivojlantiruvchi sohalar kompetensiyalariga integratsion yondashuv metodikasini takomillashtirishga doir ilmiy manbalarni tahlil etish bilan bir qatorda pedagogik kuzatuv, suhbat, modellash, loyihalashtirish, tashxis, pedagogik tajriba-sinov, ma'lumotlarni mujassamlashtirish, taqqoslash, solishtirish, ekspert baholash, umumlashtirish va statistik ishlov berish kabi ilmiy-pedagogik tadqiqot usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

"Ilk qadam" davlat o'quv dasturiga muvofiq rivojlanish markazlarida tashkil etiladigan turli faoliyatlar jarayonida bolalarni muloqotga o'rgatish bilan birga ularning intellektual salohiyatli, ijodkor va tashabbuskor shaxs sifatida shakllanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Modelda maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda bolalar faoliyatiga integratsion yondashuvni motivatsion, kognitiv va faoliyatli bosqichlarda amalga oshirish ko'zda tutiladi. Ushbu jarayonda bolalarning o'yin, mehnat, ijodiy, ma'rifiy, kommunikativ va boshqa faoliyat turlari o'zaro uyg'unlashtirilib, tarbiyaviy maqsadlarga xizmat qiladi.

Motivatsion bosqich – bolalarning faoliyatga bo'lgan qiziqishini uyg'otish, ularni ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayoniga jalb etish va faol ishtirokini ta'minlashga yo'naltiriladi. Ushbu bosqichda suhbatlar, drammashtirilgan o'yinlar, emotsional muhit yaratishga qaratilgan mashg'ulotlar orqali bolalarda ichki ehtiyoj va motivatsiyani kuchaytirish muhimdir.

Kognitiv bosqich – bolalarning ma'naviy-axloqiy tushunchalarni anglash, fikrlash va idrok etish jarayonlarini rivojlantirishga qaratiladi. Bu bosqichda bolalar "yaxshilik", "adolat", "hamdo'stlik", "rostgo'ylik", "mehribonlik" kabi tushunchalarning mazmunini o'zlashtiradilar. Shuningdek, "Nima uchun bu ish to'g'ri?", "Bu xulq-atvor

qanday oqibatlariga olib keladi?" kabi savollarga javob izlash orqali ularda tahlil qilish, solishtirish va mulohaza yuritish ko'nikmalari shakllanadi. Mazkur bosqich bolalarning shaxsiy fikr bildirish va xulosalar chiqarish qobiliyatini rivojlantiradi, bu esa keyingi – faoliyatli va refleksiv bosqichlarning samaradorligi uchun zamin yaratadi.

Faoliyatli bosqich – bolalarning ma'naviy-axloqiy mazmundagi faoliyatlarga jalb qilinishi orqali axloqiy tushunchalarni amaliyotda qo'llash imkoniyatini beradi. Bu bosqichda insonparvarlik, adolat, halollik, mehnat-sevarlik kabi fazilatlar nafaqat nazariy, balki amaliy faoliyatda ham namoyon etiladi. Bolalar o'z faoliyati jarayonida mustaqil qaror qabul qilishni, o'zini subyekt sifatida his etishni, bilimlarini shaxsiy tajribaga aylantirishni o'rganadilar.

Rivojlanish markazlarida bola shaxsining har tomonlama rivojlanishida "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari" hamda rivojlanish sohalariga integratsion yondashuv bolaning rivojlanish jarayonining yaxlitligini ta'minlaydi.

Rivojlanish markazlarida pedagoglar bolalarga qiziqqan faoliyat turi va joyini mustaqil tanlash imkoniyatini yaratadilar. Markazlarda mavjud bo'lgan materiallar bolalarga predmetlarni o'rganish, turli o'yinli vaziyatlarda o'z g'oyalarini sinab ko'rish, tekshirish va mustaqil o'rganish orqali savollariga javob topish imkonini beradi.

Rivojlanish markazlarida ta'lim integrativ xarakterga ega bo'lib, har bir rivojlanish muhiti boshqa rivojlanish muhiti bilan uzviy bog'liqlikda tashkil etilishi lozim. Shu sababli ta'lim jarayoni yaxlit, uzviy bog'langan va integrallashgan bo'lishi zarur.

Rivojlanish sohalaridagi kutilayotgan natijalarni (rivojlanish ko'rsatkichlarini) shakllantirish uchun bir haftalik faoliyat turlari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

- syujetli-rolli, ta'limiy va qoidali o'yinlar;
- suhbatlar;
- badiiy adabiyot bilan ishlash;
- bilish-tadqiqot faoliyati;
- konstruksiyalar yaratish;
- tasviriy faoliyat;
- musiqiy faoliyat.

Rivojlanish markazlari bolaga hissiy, jismoniy, ijtimoiy va intellektual rivojlanishning barcha sohalarida qo'llab-quvvatlashni nazarda tutadi. Misol tariqasida, "Nutq va til" markazi bolaning jismoniy, ijtimoiy-hissiy va bilish kompetensiyalarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi. "O'zbekiston – mening Vatanim" mavzusidagi mashg'ulotni tashkil etishda "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari" hamda "Ilk qadam" davlat o'quv dasturidan foydalanilgan holda rivojlanish sohalarining uzviy bog'liqligi asosida maqsadlar belgilandi.

"Nutq va til" markazida bolalar "O'zbekiston – mening Vatanim" mavzusidagi ta'limiy faoliyat davomida o'zaro muloqot qilish, ona tilida ravon so'zlashish, nutqning moslashuvchanligini oshirish, so'z boyligini kengaytirish va yangi tushunchalarni o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Mazmunli rasmlar asosida hikoyalar tuzish, o'qilgan badiiy asarlar yuzasidan savol-javoblarda qatnashish hamda nutq o'stirishga qaratilgan ta'limiy o'yinlarda ishtirok etish orqali bolalarda vatanparvarlik, hozirjavoblik, bilimdonlik, jasurlik va mardlik kabi ma'naviy-axloqiy fazilatlar shakllanadi.

"Nutq va til" markazida tashkil etiladigan faoliyat davomida bolalar do'stlari orasida fikr bildirish, mavzu asosida hikoya tuzish, guruh muhokamasida faol muloqotga kirishish hamda tinglab ishtirok etish ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining turli yosh guruhlari tarbiyalanuvchilarida rivojlanish sohalarini kompetensiyalarini baholash kuzatuvlar yordamida amalga oshiriladi. Pedagog bolalar hayotini muntazam va tizimli ravishda kuzatib boradi. Bolaning rivojlanishini kuzatish – pedagog faoliyatidagi eng mas'uliyatli jarayonlardan biridir. Kuzatishning asosiy maqsadi ta'lim-tarbiya jarayonida bolaning turli bilim va ko'nikmalardan qay tarzda foydalanishi haqida ishonchli ma'lumot to'plashdir. Bolalarni turli joy, vaqt va sharoitlarda kuzatish ularning qiziqishlari, kuchli tomonlari va ehtiyojlari haqida to'liq tasavvur hosil qilish imkonini beradi.

Pedagogik kuzatuvlar natijasida olingan ma'lumotlar ta'lim-tarbiya jarayonini rejalashtirish va takomillashtirishda muhim o'rin tutadi. Kuzatuv natijalarini hujjatlashtirish pedagogga ma'lumotlarni tizimli saqlash, vaqt o'tishi bilan yuz berayotgan o'zgarishlarni aniqlash hamda bolaning ota-onalari va mutaxassislar bilan bolalarning rivojlanishi va ta'lim olish xususiyatlari bo'yicha muntazam ma'lumot almashish imkonini yaratadi. Kuzatuv va baholash natijalarini qayd etish uchun rivojlanish xaritalaridan foydalaniladi.

Rivojlanish xaritasi – bolaning turli sohalaridagi rivojlanish darajasi haqida muntazam ma'lumot to'plab boriladigan hujjatlashtirish shakli bo'lib, u davlat talablari asosida tuziladi. Har bir yosh guruhi (3–4, 4–5, 5–6,



6–7 yosh) uchun alohida yuritiladi va har bir bola uchun yil davomida uch marta: o'quv yilining boshida, o'rta-sida va oxirida to'ldiriladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotini tugatayotgan 6–7 yoshli bolalar uchun esa maktabga tayyorlik xaritasi to'ldiriladi.

Zamonaviy ta'lim jarayoni pedagogning shaxsga nisbatan insonparvar munosabati, bolalarga mehr va ishonch bildirish, o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish, muloqot madaniyatini yuqori darajada shakllantirish, majburlashdan voz kechib ijobiy rag'batlantirish tamoyillariga tayanadi. Bolalarning faoliyatida uchrashi mumkin bo'lgan kamchiliklarga bag'rikenglik bilan yondashish va ularni bartaraf etishning samarali usullarini qo'llash pedagogik mahoratning muhim jihatlardan biridir. Ta'lim jarayonining demokratlashuvi esa tarbiyachi va bolalar huquqlarining tengligi, tanlov erkinligi va o'z fikrini bemaol bayon etish imkoniyatining yaratilishini talab etadi.

Mazkur talablarni samarali bajarishning asosiy omillaridan biri – MTTlarda ta'lim-tarbiya jarayonini innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ma'naviy-axloqiy fazilatlarining o'z vaqtida shakllanmasligi kelgusida ijtimoiy moslashuv jarayonlarini murakkablashtirishi mumkinligi bois mazkur yo'nalishdagi pedagogik faoliyatni sifatli yo'lga qo'yish muhimdir. Ma'naviy-axloqiy fazilatlar o'z-o'zidan shakllanmaydi, balki pedagogik jarayon natijasida rivojlanadi. Shu sababli MTTlarda tarbiyachilar bolalarning dunyoqarashini kengaytiradigan, ma'naviy-axloqiy ko'nikmalarini rivojlantiradigan va har tomonlama barkamol shaxs sifatida shakllanishiga ko'mak beradigan rivojlantiruvchi muhit yaratishlari zarur.

Tadqiqot jarayonida rivojlantiruvchi sohalar kompetensiyalariga integratsion yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda qo'llanilishi mumkin bo'lgan bir qator shaxsga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalar – tadqiqot texnologiyasi, kommunikativ texnologiya, o'yin texnologiyasi, psixologik texnologiya, faoliyat texnologiyasi va refleksiya texnologiyasining pedagogik imkoniyatlari tahlil qilindi.

Tadqiqot texnologiyasi – bolalarning mustaqil izlanish olib borishi, tajriba orqali xulosalar chiqarishi va kashfiyot yo'li bilan yangi bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan pedagogik yondashuvdir. Ushbu texnologiyada bolalarga tayyor bilim berilmaydi, aksincha, muammoni aniqlash, savollarga javob izlash, tajriba o'tkazish va o'z kuzatuvlari asosida xulosa chiqara olishlari uchun zarur sharoit yaratiladi.

“Tadqiqot texnologiyasi”ni qo'llash jarayonida quyidagi metodlardan foydalanish mumkin (1-jadval).

1-jadval: Tadqiqot texnologiyasi vositasida qo'llanilishi mumkin bo'lgan usullar

Texnologik usul	Rivojlanish sohalar kompetensiyasi	Ma'naviy-axloqiy tarbiya yo'nalishi
Roliy o'yin texnologiyasi	Nutq, o'qish va yozish malakalari; ijtimoiy-hissiy rivojlanish; bilish	Empatiya, yordam ko'rsatish, madaniyatli muomala
Axloqiy muammoli vaziyatlar	Bilish; nutq, o'qish va yozish malakalari; ijodiy rivojlanish	Qaror qabul qilish, mas'uliyatli tanlov qilish ko'nikmalari
Artterapiya (art therapy)	Ijodiy rivojlanish; ijtimoiy-hissiy rivojlanish; nutq, o'qish va yozish malakalari	Ichki hissiyotlarni ifoda etish, ehtirom va hurmatni shakllantirish
Didaktik o'yinlar	Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzi; bilish; nutq, o'qish va yozish malakalari	Hamkorlik, halollik, navbat kutish madaniyati
Integrativ ertaklar metodi	Barcha rivojlanish sohalar	Mehr, do'stlik, halollik, kechirimlilik kabi fazilatlar

Kommunikativ texnologiya bolalarga o'z fikrini ravon bayon etish, bahslashish, munozara yuritish, tasavvurlarini erkin nutq orqali ifodalash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu texnologiyani qo'llash jarayonida bolalar fikrlash jarayonini faol amalga oshiradilar, muloqot madaniyatini egallaydilar hamda nutqiy faolliklari rivojlanadi.

Masalan, “Ur to'qmoq” ertagini o'qib berish jarayoni rivojlanish sohalar integratsiyasining keng imkoniyatlarini namoyon etadi hamda bolalarda ma'naviy-axloqiy sifatlarining uyg'un rivojlanishiga zamin yaratadi.

Ertak mazmunida harakat, urg'u va kuch ishlatish kabi elementlarning mavjudligi bolalarni jismoniy faoliyatga undaydi va harakat koordinatsiyasining shakllanishiga yordam beradi. Raqs va o'yinlar orqali ertak qahramonlarining harakatlarini takrorlash esa bolalarning yirik va mayda motorika ko'nikmalarini rivojlantiradi, nohaqlikka nisbatan ongli munosabat, odilona xatti-harakat, mehnatsevarlik, halollik singari ijtimoiy-axloqiy fazilatlarining shakllanishiga xizmat qiladi.

“Ur to'qmoq” ertagi bolalarda o'zaro hamkorlik, yordam berish, rahm-shafqat, mehribonlik kabi ijtimoiy-hissiy qadriyatlarini mustahkamlaydi. Ertakdagi voqealar ketma-ketligi bolalarning hayotiy maqsadlari, qat'iyatligi, atrofdagilar bilan munosabatini ongli yo'l bilan shakllantirishga ko'mak beradi. Shuningdek, ertak mazmuni ularni vaziyatdan chiqish yo'llarini topish, muvaffaqiyatsizliklarga bardoshli bo'lish, o'z-o'zini anglashga yo'naltirilgan hissiy ko'nikmalarni rivojlantiradi.



Ertakdagi dialoglar, so'zlashuv elementlari va badiiy ifodalar orqali bolalar so'z boyligini boyitadilar, mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradilar, dialog tuzish va nutqni mantiqan tashkil etish ko'nikmalarini egallaydilar. Ertakni hikoya qilib berish jarayonida bolalarda eslab qolish, qayta bayon qilish va badiiy-obrazli nutqni shakllantirish imkoniyati kengayadi.

Ertakni sahnalashtirish jarayonida bolalar qahramonlarning xatti-harakatlariga taqlid qiladilar, bu ularda ezigulikning mohiyatini anglash, nojo'ya holatlarga nisbatan tanqidiy munosabatni shakllantirishga yordam beradi. Shu tariqa ertak mazmuni orqali bolalarning ma'naviy-axloqiy dunyosi boyib boradi.

Ertak qahramonlarining harakatlarini tushunish, ularning sabab-oqibat munosabatlarini tahlil qilish jarayonida bolalarda mustaqil fikrlash, xulosa chiqarish va ehtimoliy natijalarni oldindan ko'ra olish ko'nikmalari rivojlanadi. Ushbu jarayon ularning bilishga bo'lgan qiziqishini oshirib, kitobxonlik madaniyatining shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, ertakdagi voqealar va obrazlar bolalarda tasavvur, ijodiy fikrlash, badiiy idrok kabi sifatlarning rivojlanishiga xizmat qiladi. "Ur to'qmoq" ertagida mavjud harakatlarni teatrlashtirish, qo'shiq yaratish yoki rasm chizish kabi ijodiy faoliyatlar badiiy didni boyitadi, go'zallikni his qilishni rivojlantiradi hamda ertakdagi noxush obrazlarga nisbatan barqaror axloqiy pozitsiya shakllanishiga yordam beradi.

Bolalarni ertak mazmuni bilan tanishtirib bo'lgach, tarbiyachi tomonidan savollar beriladi va bolalar ushbu savollarga o'z fikrlarini bayon etgan holda javob qaytaradilar.

Savollar:

1. Ovchi cholning tuzog'iga qanday laylak tushibdi?
2. Ovchi chol qanday sarguzashtlarni boshidan kechiradi?
3. Bolalar xumchaga aytiladigan sehrli so'zlarni qanday eslab qolishadi?
4. Ular cholning omonatini ehtiyotlab saqlashganmi?
5. O'ylab ko'r-chi, bolalar yaxshi ish qilishganmi?

Seningcha, to'qmoq bolalarga adolati jazo bergan deb o'ylaysanmi? Bu jarayon ularga qanday saboq bo'lishi mumkin?

O'yin texnologiyasi – bu o'yin orqali o'rganish, bilim, malaka va ko'nikmalarni o'yin vositasida egallashga yo'naltirilgan samarali pedagogik yondashuvdir. Ta'limiy o'yinlar, voqea-band o'yinlari va boshqa turdagi o'yinlar bolalarning qiziqishi va faolligini oshirgan holda ta'lim jarayonini jonlantiradi.

O'yin texnologiyalarining maqsadli yo'naltirilganligi didaktik vazifalar orqali namoyon bo'ladi. Bular jumlasiga quyidagilar kiradi:

- bolalarning dunyoqarashini kengaytirish;
- biluv faoliyatini faollashtirish;
- bilim, ko'nikma va malakalarni amaliyotda qo'llash;
- amaliy faoliyat uchun zarur bo'lgan alohida ko'nikmalarni shakllantirish;
- mehnat ko'nikmalarini rivojlantirish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlanish sohalariga integratsion yondashuv asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda o'yin texnologiyalari muhim o'rin egallaydi. Ular bolalarda ijtimoiy faollik, muloqot madaniyati, hamkorlik, hurmat-ehtirom kabi fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Masalan: *"Mehmonlarni kutib olamiz" o'yini.*

Maqsad: Bolalarni mehmon kutishning o'ziga xos qoidalari bilan tanishtirish jarayonida rivojlanish sohalarini kompetensiyalarini integratsion yondashuv asosida shakllantirish; muloqot vositalaridan faol foydalanish; mehmondo'stlik xislatini rivojlantirish.

O'yin jarayoni: Ertaklar olamining mashhur qahramonlari moviy rangdagi vertolyotda guruhga mehmonga keladilar. Ular orasida Buratino, Zumrad va Qimmat, Kenja botir, Qizil qalpoqcha kabi qahramonlar bo'lib, ularning yoshi va ko'rinishi turlicha bo'lganligi sababli ularni mos tarzda kutib olish lozim. Mehmonlarni kutib olish jarayonida mimika va qo'l harakatlaridan to'g'ri foydalanish uchun quyidagi qoidalarga amal qilish tavsiya etiladi:

- mehmonning yuziga ochiq chehra bilan qarash;
- boshni biroz egib, tabassum qilish.



O'yin davomida mehmonlar turli davlatlardan bo'lishi ham mumkin. Bunday holatda bolalarga qahramon mansub bo'lgan tilida salomlashish o'rgatiladi. Bu jarayon bolalarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, bag'rikenglik, muloqot madaniyati va ijtimoiy faollikni kuchaytiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash jarayonida rivojlantiruvchi sohalar kompetensiyalariga integratsion yondashuvni qo'llash ta'lim-tarbiyaning sifat va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, tadqiqot texnologiyasi, kommunikativ texnologiya, o'yin texnologiyalari, artterapiya, integrativ ertaklar metodi kabi innovatsion yondashuvlarning uyg'un qo'llanishi bolalarda ijtimoiy, hissiy, bilish, nutqiy va axloqiy ko'nikmalarning kompleks shakllanishiga mustahkam zamin yaratadi. Mazkur texnologiyalar bolaning shaxs sifatida kamol topishida, unda mustaqil fikrlash, muloqot madaniyati, ijodkorlik va ijtimoiy mas'uliyat hissini rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, tadqiqot jarayonida ko'rib chiqilgan pedagogik texnologiyalarni mashg'ulotlarda ilmiy-metodik talablar asosida to'g'ri qo'llash orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda maqsad qilingan natijalarga erishish mumkin. Integratsion yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni bolalarda empatiya, yordam ko'rsatish, madaniyatli muomala, qaror qabul qilish, mas'uliyatli tanlov qilish, ichki hissiyotlarni ifoda etish, o'zaro ehtirom, hamkorlik, halollik, navbat kutish madaniyati, mehr, do'stlik, kechirimlilik kabi muhim ma'naviy-axloqiy sifatlarning izchil rivojlanishiga xizmat qiladi.

Ushbu texnologiyalarni kompleks qo'llash ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshiradi hamda bolalarning shaxsiy rivojlanishi uchun qulay pedagogik muhit yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 24-sentabrdagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 2020-yil 24-sentabr, 03/20/637/1313-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 2021-yil 21-aprel, 03/21/683/0375-son; 2021-yil 12-oktabr, 03/21/721/0952-son <https://lex.uz/docs/-5013007>.
2. Abdullayeva B. S. Fanlararo aloqadorlikning metodologik-didaktik asoslari (ijtimoiy-gumanitar yo'nalishdagi akademik litseylarda matematika o'qitish misolida): Ped. fan. dok. ... diss. – Toshkent, 2006. – 264 b.
3. Abdusamatova N. J. Integratsion yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning pedagogik imkoniyatlari: Ped. fan. bo'yicha fals. dok. (PhD) ... diss. avtoref. – Namangan, 2021. – 12 b.
4. Abdullayev A. A. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – 2021-yil 09-aprel. – 184-b.
5. Arapbayeva D. K. Sharq mutafakkirlarining oila va tarbiya haqidagi qarashlari // Zamonaviy ta'lim, 2015-yil, № 7, 66–70-b.
6. Asilbekov N. B. Bolalar ma'naviy-axloqiy tarbiyasi masalalari Sharq mutafakkirlari tarbiyaviy qarashlarida // Conference on Humanity, Education and Science, London (UK), 2021-yil 15-dekabr. – 219–221-b.
7. Do'stmuhammedova Sh. A. Sharq mutafakkirlarining oilada farzandlar ta'lim-tarbiyasi borasidagi qarashlari. Xalqaro anjuman materiallari. – Toshkent, 2021.
8. Irisbayeva M. N. Ta'lim-tarbiya jarayonlarida tarixiy-milliy va zamonaviy pedagogik texnologiyalar integratsiyasi: Ped. fan. bo'yicha fals. dok. (PhD) ... diss. avtoref. – Toshkent, 2020. – 12–13-b.
9. Ismailova Z. K. Talabalarning kasbiy pedagogik malakalarini shakllantirish: Ped. fan. nom. ... diss. – Toshkent, 2000. – 186 b.
10. Nuriddinova M. M. Maktabgacha yoshdagi bolalarda harakat ko'nikma va malakalarini shakllantirishda harakatli o'yinlardan foydalanish metodikasi: Ped. fan. bo'yicha fals. dok. (PhD) ... diss. avtoref. – Toshkent, 2020. – 61 b.
11. Norqobilova S. G'. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy-hissiy rivojlanishi va ularning shaxs sifatida shakllanishi // Molodoy ucheniy, № 18 (360). – Ufa, 2021-yil aprel.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.